

BAYONNOMASI

Qatnashdilar: M.Xidirova, G.Xolmurodova, O.To'raqulova, N.Shomurodova

O'qituvchi: Ro'ziyeva R

Fan: Chet tillarni o'qitishning integrallashgan kursi

Guruh: 312-XT

Mavzu: Teaching reading

Sana: 27.10.2025 yil

Darsning maqsadi: Ochiq darsning asosiy maqsadi talabalar o'rtasida ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, o'qish jarayonida matnni tushunish, asosiy g'oyani aniqlash, kontekstdan so'z ma'nosini topish hamda o'qilgan matn asosida mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Shuningdek, darsda talabalarga o'qish turlarini (skimming, scanning, intensive, extensive reading) farqlash, o'qish jarayonida samarali metod va strategiyalardan foydalanish ko'nikmalari o'rgatildi.

Dars boshida o'qituvchi talabalar bilan salomlashdi, davomatni aniqladi va dars mavzusi hamda maqsadi bilan tanishtirdi. Motivatsion savol: *"Why do we read?"* orqali talabalar e'tiborini mavzuga jalb qildi. "Brainstorming" usuli yordamida talabalar o'qishning maqsadi va ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirdilar. O'qituvchi "Types of Reading" mavzusida qisqa nazariy tushuncha berdi. Talabalar rasmlar va sarlavhalar asosida matn mazmunini taxmin qildilar. Talabalar matnni o'qib chiqib, asosiy g'oyani topdilar (skimming). Keyinchalik aniq ma'lumotlarni topish (scanning) mashqlari bajarildi. So'ngra savol-javoblar, sinonim/antonim topish va gaplarni to'ldirish topshiriqlari orqali matn chuqur tahlil qilindi. Talabalar kichik guruhlarda matnni muhokama qildilar, o'qilgan matn

asosida xulosa chiqarib, o'z fikrlarini taqdim etdilar. O'qituvchi talabalar javoblarini tahlil qildi, to'ldirdi va umumlashtirdi.

Dars yakunida o'qituvchi talabalarning faoliyatini baholadi, darsda qo'llanilgan metodlar samaradorligini tahlil qildi. Talabalardan "Reflection" bosqichida dars bo'yicha o'z fikr va taassurotlarini so'radi. Yakuniy xulosalar berildi va uyga vazifa topshirildi. Ochiq dars davomida talabalar o'qish strategiyalaridan to'g'ri foydalanishni o'rgandilar, matnni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlashdi. Dars interaktiv ruhda, yuqori faollik va ijodkorlik bilan o'tdi. Har bir talaba dars jarayonida faol ishtirok etdi va mavzuni chuqur o'zlashtirdi.

"Teaching Reading" mavzusidagi ochiq dars belgilangan maqsad va vazifalarga to'liq erishdi. Talabalarda o'qish ko'nikmalari, mustaqil fikrlash, matnni tahlil qilish hamda kommunikativ yondashuv asosida o'qitish tajribasi shakllandi. Darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullar samarali qo'llanildi.

Kafedra qarori:

- 1.O'qituvchi: Ro'ziyeva Rayhon CHTO'IK fanidan "Teaching reading" mavzusidagi ochiq dars tahlili ma'qullansin.
2. O'qituvchi R. Ro'ziyevaning o'tkazgan ochiq darsi talabga javob beradi va yuqori darajada tashkil etildi, deb hisoblansin.

Kafedra mudiri:

D.Tog'aymurodov

Kotiba:

I. Choriyeva





